

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI

XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI

2024-yil 16-aprel

Toshkent – 2024

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta'minlash to'g'risi"dagi 2024-yil 18-yanvarda tasdiqlangan 16-sonli buyrug'iga 1-ilovasidagi 2024-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi asosida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilning 16-aprelida "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani o'tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llanayotgan va foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha o'zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o'qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

G.Norimova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Tahrir hay'ati:

**S.Muhamedova, N.Musulmanova, X.Kadirova, O.Abduhakimova, Y.Shirinova,
O.Turakulova, D.Elova, G.Iskandarova, Y.Do'smurodova**

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 9-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.

O'ZBEK TILINI BADIY FILMLAR VA BADIY ADABIYOTLAR VOSITASIDA O'RGATISH

Azimjon Davronov¹

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilini o'zga tili guruhlariga yoki xorijliklarga badiiy film yoki badiiy asarlar orqali o'rgatish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *o'zbek tili, badiiy film, badiiy asar, o'rgatish.*

Annotation. This article discusses teaching the Uzbek language to foreign language groups of foreigners through feature films or works of art.

Key words: *Uzbek language, art film, art work, teaching.*

O'zbek tilini o'zga tili guruhlariga yoki xorijliklarga o'rgatish murakkab va mashaqqatli jarayon. Bu jarayon ushbu fan o'qituvchisidan chuqur bilim, ko'p yillik tajriba va yuksak ijodiy mahoratni talab etadi. Zero, o'zbek tili o'qituvchisi nafaqat til fanining bilimdoni, balki adabiyotni ham yaxshi bilishi lozim. Chunki, o'zbek tilini o'zbek adabiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

O'zbekiston respublikasining Davlat ta'lim standartida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun o'zbek tili fanidan quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash lozimligi belgilab qo'yilgan: morfologiya va sintaksisga doir asosiy tushunchalarni hamda shu tushunchalar bilan bog'liq ravishda grammatik atamalarni bilish; so'zlarning yozilishi, grammatik vositalarning so'zlarga qo'shilishi bilan bog'liq imlo qoidalarini bilish va bu qoidalarga amal qilish; mustaqil gaplarni, murakkab sintaktik butunliklarni o'zaro to'g'ri bog'lay olish; o'zbek mumtoz adabiyoti hamda XX-XXI asr zamonaviy o'zbek adabiyoti namoyandalarini bilish, ularning asarlaridan namunalar ayta olish; badiiy asar timsollariga og'zaki va yozma tavsif berish; o'rganilgan mavzu doirasida va rasmlarga qarab mustaqil 15-20 gap bilan izchil va bog'lanishli monologik nutq shaklida bayon qilish; ayrim matnlar mazmunini o'z so'zi bilan qayta hikoya qilish; matnni (badiiy asar, hikoya, ilmiy maqola, xabar) to'g'ri, ravon, tushunib bir daqiqada 90-100 so'z tezligida o'qish; badiiy asarni, she'rni ifodali o'qish; o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalaridan ayta olish; ish qog'ozlarini yoza olish [1].

O'zbek tili darslarida adabiy ta'limga e'tibor berish qisman, Yo'ldoshev Rustam A'zamovichning "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" [2] nomli monografiyasida, Muxitdinova Xadicha Sobirovnaning "O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi" [3] nomli o'quv qo'llanmasida ham tilga olingan.

¹ Davronov Azimjon Soliyevich – *Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Iqtibos uchun: *Davronov, A.S. (2024) O'zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o'rgatish. // "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" nomli xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. 2024-yil 16-aprel. Toshkent – 2024. 79-81 b.*

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2024.16.4/DTWN8094

Lekin aynan badiiy film yoki badiiy asarlar orqali til o'rgatish masalasi haqida fikr yuritilmagan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilari 3-9-sinflar kesimida xususan, adabiy ta'limdan quyidagi natijalarga erishish ko'zda tutilgan.

3-sinfda O'qish bo'yicha: - matnni (ertak, kichik hikoya, xabar) to'g'ri, ravon, tushunib, bir daqiqada 30-40 so'z tezligida o'qish; - hikoyani (hikoyadan olingan parchani), she'rni ifodali o'qish; - shu sinfda o'rganilgan 2-3 she'rni yoddan ifodali aytish; - o'rganilgan matn mazmunini 3-4 ixcham gap hajmida o'z so'zi bilan qayta hikoya qilish.

4-sinfda O'qish bo'yicha: - matnni (ertak, xabar, e'lon) to'g'ri, ravon, tushunib, bir daqiqada 40-50 so'z tezligida o'qish; - hikoya, she'r va maqollarni ifodali o'qish; - matndan asosiy fikrni ajratib olib, umumiy xulosani ifodalay bilish, raqamli dalilni aytish, ertak yoki multfilm qahramonlariga baho berish; - o'rganilgan matnlar mazmunini 5-6 gap hajmida o'z so'zi bilan qayta hikoya qilish.

5-sinfda O'qish bo'yicha: - matnni (ertak, kichik hikoya, gazeta yoki jurnaldan olingan maqola, xabar) to'g'ri, ravon, tushunib, bir daqiqada 50-60 so'z tezligida o'qish; - ertak, hikoya, masal va she'rlarni ifodali o'qish; - matndan asosiy fikrni ajratish, yangi axborotni o'zlashtirish, faktlarga, voqea-hodisalarga, asar qahramonlariga o'z munosabatini bildirish; - o'rganilgan matnlar mazmunini 5-7 gap hajmida o'z so'zi bilan qayta hikoya qilish.

6-sinfda O'qish bo'yicha: - matnni (ertak, kichik hikoya, gazeta yoki jurnaldan olingan maqola, xabar) to'g'ri, ravon, tushunib, bir daqiqada 55-65 so'z tezligida o'qish; - ertak, hikoya, masal va she'rlarni ifodali o'qish; - shu sinfda o'rganilgan 4-6 she'rni yoddan ifodali aytish; - matndan asosiy fikrni ajratish; - yangi axborotni o'zlashtirish, faktlarga, voqea-hodisalarga, asar qahramonlariga o'z munosabatini bildirish; - o'rganilgan matnlar mazmunini 6-7 gap hajmida o'z so'zi bilan qayta hikoya qilish.

7-sinfda O'qish bo'yicha: - matnni (ertak, kichik hikoya, gazeta yoki jurnaldan olingan maqola, xabar) to'g'ri, ravon, tushunib, bir daqiqada 65-70 so'z tezligida o'qish; Davlat ta'lim standartiga sharh - o'rganilgan matnlar mazmunini 7-8 gap hajmida o'z so'zi bilan qayta hikoya qilish; - ertak, hikoya, masal va she'rlarni ifodali o'qish; - shu sinfda o'rganilgan 5-7 she'rni yoddan ifodali aytish; - matndan asosiy fikrni ajratish, yangi axborotni o'zlashtirish, faktlarga, voqea-hodisalarga, asar qahramonlariga o'z munosabatini bildirish.

8-sinfda O'qish bo'yicha: - matnni (ertak, kichik hikoya, gazeta yoki jurnaldan olingan maqola, xabar) to'g'ri, ravon, tushunib, bir daqiqada 70-75 so'z tezligida o'qish; - o'rganilgan matnlar mazmunini 8-9 gap hajmida o'z so'zi bilan qayta hikoya qilish; - shu sinfda o'rganilgan 6-8 she'rni yoddan ifodali aytish; - asar qahramonlariga o'z munosabatini bildirish.

9-sinfda O'qish bo'yicha: - matnni (ertak, kichik hikoya, gazeta yoki jurnaldan olingan maqola, xabar) to'g'ri, ravon, tushunib, bir daqiqada 75-85 so'z tezligida o'qish; - o'rganilgan matnlar mazmunini 8-10 gap hajmida o'z so'zi bilan (asosiy mazmunini qamrab olgan holda) qayta hikoya qilish; - shu sinfda

o'rganilgan 8-10 ta she'rni yoddan ifodali aytish; - asar qahramonlariga o'z munosabatini bildirish; - ijodi haqida qisqa tushuncha berilgan o'zbek yozuvchi va shoirlari haqida fikr aytish [1].

Yuqorida ko'zda tutilgan maqsad va natijaga erishish uchun har bir sinf kesimida rejadagi mavzu mazmuniga mos ertak multfilmlar, badiiy asarlar asosida yaratilgan badiiy filmlar, o'quv filmlari, hujjatli tarixiy filmlarni namoyish etish samara beradi. Har bir sinf kesimida aksar o'quvchilar tomosha qilgan filmi mazmunini gapirib berishga harakat qiladi. Misol uchun o'quv rejada yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarini o'qish mavzusiga navbat keldi. Ushbu mavzu bilan tanishtirish uchun eng avvalo mazkur asar asosida yaratilgan kinofilmni namoyish qilish qulayroq ko'rinadi. Filmni tomosha qilgan o'quvchida asar haqida tasavvur paydo bo'ladi. Ushbu tasavvur yozuvchi hayoti va ijodi, uning boshqa asarlarga ham qiziqish uyg'otadi. Ayni imkoniyat o'quvchiga asar o'qish imkonini tug'diradi. Asarni qiziqish bilan o'qigan o'quvchida tez va ifodali o'qish ko'nikmalari hosil bo'ladi. Ushbu ko'nikmalar uning nutqini o'sishiga yordam beradi. Nutq ko'nikmasi shakllangan o'quvchi fikrini o'g'zaki va yozma bayon qilish imkoniga ega bo'ladi. Ushbu natija o'quvchida grammatik bilimlarni o'zlashtirish uchun ham yengillik tug'diradi. Bunday tajribani har bir sinf kesimida qo'llash mumkin. Misol uchun G'.G'ulomning "Shum bola", "Sen yetim emassan" asarlariga ishlangan filmlar yoki yozuvchi va shoirlar hayoti, ijodiga bag'ishlangan filmlar hammasi o'quvchi diqqatini tortadi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Ibn Sino, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Hamza Hakimzoda, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va ularning asarlariga ishlangan filmlar o'zbek tilini o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon", "O'tgan kunlar", Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanlari, Hamzaning "Boy ila xizmatchi", "Maysaraning ishi" pyesalarini dunyoning bir necha tillarida tomosha qilish mumkin. Ushbu vositalar ham boshqa millatlarga o'zbek tili va madaniyatini o'rganishi uchun manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOT:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazining uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. O'zbek tili (5 – 9 sinflar) 2010.

Yo'ldoshev R.A. O'zbek tilini o'qitish metodikasi, Toshkent, 2015.

Muxitdinova X.S. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi, Toshkent, 2023.

MUNDARIJA:

1	Muhammedova S. Shirinova Y. Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir.....	3
2	Kadirova X.B. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati.....	7
3	Iskandarova G.T. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda so'z ma'nolarini o'zlashtirish.....	15
4	Musulmanova N. Filologiya yo'nalishi rusiyzabon guruhlarida o'zbek adabiyoti fanini o'qitishda asar tahlili muammolari.....	21
5	Isayeva Sh. Adabiy o'qish darslarida ruhiyat masalalarining o'rganilishi..	25
6	Do'smuradova Y. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.....	31
7	Turakulova O.A. O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	35
8	Məmmədov X. Kadirova X. X(iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri.....	39
9	Elova D.Q. O'zbek tilining rasmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublarining ahamiyati.....	45
10	Abdulkhlimova O. O'zbek muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlari.....	56
11	Xo'jayev N. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi.....	61
12	Aytniyazova N. O'zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	66
13	Nasirdinova O. Lingvostatistika – tilshunoslikning zamonaviy va amaliy sohasi.....	70
14	Khidoyatova D.A. Views of eastern thinkers on interactive education and its principles.....	75
15	Davronov A.S. O'zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o'rgatish.....	79
16	Аликулова М. Анализ изучения языка и стиля произведений А.И.Куприна.....	82
17	Bazarova D.B. Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan.....	88
18	Yo'ldosheva Y.A. Grafologik tahlil qilish metodikasi.....	91
19	Beysenova A. Kadirova X. Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar.....	96
20	Pardayeva M.Ch. Xorijliklarga o'zbek tilini maqsadli o'qitishda yuzaga keladigan muammolar va muqobil yechimlar.....	102
21	Shodmanov T.A. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari.....	107
22	Abduqodirova N. Multilingualizm muhitida shakl va ma'no munosabatlarini o'qitishning lingvokulturologik jihatlari.....	112